Mamlakatimizda davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat xarajatlarini boshqarishda shaffoflikni kuchaytirish, hisobdorlikni oshirish hamda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga, davlat xarajatlarini nazorat qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu esa davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish va ularning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash imkonini bermoqda.

Moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirishda moliyaviy hisobotlarning sifatli tuzilishi, xarajatlarning asoslanganligi va ularning samaradorligini baholash tizimini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat xarajatlari ustidan monitoringni kuchaytirish, davlat xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rganish va baholash orqali moliyaviy resurslarni samarali boshqarish imkoniyatini yaratadi. Bu esa davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy intizomni oshirishga va budjet mablag'larining tejalishiga yordam beradi.

Davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning samaradorligi uni amalga oshirishning tizimliligi, barqarorligi va shaffofligi bilan belgilanadi. Shu sababli, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, davlat moliyaviy nazorat organlarining mas'uliyatini oshirish orqali moliyaviy nazoratning sifatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, moliyaviy nazoratning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash davlat budjeti mablag'laridan foydalanish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga imkon yaratadi. Bu esa davlat moliyasini boshqarishning samaradorligini oshirib, davlat budjeti mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budjeti mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda markaziy moliyaviy manba vazifasini bajaradi. Budjet mablag'larini boshqarish jarayoni ularning maqsadga muvofiq ishlatilishi, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va davlat sektorida javobgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, budjetni boshqarish nazariyasi moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash va moliyaviy intizomni mustahkamlashga yo'naltirilgan ilmiy asoslarni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida davlat mablag'larining oqilona va samarali boshqaruvini ta'minlash ko'rsatilgan. Budjet mablag'lari davlat faoliyati uchun asosiy resurs bo'lib, ular ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va aholining hayot sifatini oshirishga

yo'naltiriladi. Budjet jarayonlarini samarali nazorat qilish mamlakat barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Shuning uchun bu bo'yicha bir qancha mahalliy olimlarimiz izlanishlar olib borishgan. Xususan, A.V. Vahobov va T.S. Malikov moliyaviy nazorat davlat budjeti mablag'larini samarali sarflashga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, "Moliyaviy nazorat mablag'larning maqsadli ishlatilishi va davlat moliyasining barqarorligini ta'minlaydi". Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, nazorat tizimini kuchaytirish va javobgarlikni oshirish samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [1].

Z.T. Gaibnazarova va Sh.A. Isamuxametov davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazorat zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, "Davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish moliyaviy nazoratning sifatiga bog'liq". Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, budjet mablag'larini maqsadli sarflash, ularni nazorat qilish va shaffoflikni ta'minlash iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi [2]. T.S. Malikov moliyaviy nazorat budjet mablag'laridan oqilona foydalanishda muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Budjet mablag'larining samarali ishlatilishi doimiy moliyaviy nazorat va maqsadli sarflash orqali ta'minlanadi". Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, nazoratni kuchaytirish davlat moliya tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [3].

Bundan tashqari, A. Mamadaliyev davlat moliyaviy nazorati budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Moliyaviy nazorat budjet mablag'larining maqsadli ishlatilishi va moliyaviy intizomni kuchaytirishga xizmat qiladi". Shu asosda tadqiqotchi nazoratning samaradorligi budjet mablag'larining talon-toroj qilinishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [4]. Yana bir tadqiqotchi S. Rahimovning fikricha, davlat moliyaviy nazorati budjet mablag'laridan to'g'ri va samarali foydalanishni ta'minlaydi. U "Moliyaviy nazorat mablag'larning belgilangan maqsadlarda ishlatilishini nazorat qilib, davlat moliyasini tejashga va moliyaviy tartibni mustahkamlashga yordam beradi", deb qayd etadi. Muallif nazorat tizimi orqali mablag'larning noqonuniy ishlatilishi oldi olinishi va davlatning iqtisodiy barqarorligi ta'minlanishini muhim jihat sifatida ko'rsatadi [5].

A.A. Kamalov esa davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Moliyaviy nazorat budjet tashkilotlarida mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlaydi". Muallif nazorat tizimi mablag'larning noqonuniy sarflanishini oldini olib, budjet intizomini kuchaytirishini qayd etadi [6].

Ingliz tadqiqotchilaridan L. Aaskoven davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda institutsional nazoratning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Budjet institutlari va samarali nazorat mexanizmlari mablag'larning oqilona sarflanishi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi". Muallif nazorat ochiqlik va javobgarlikni oshirib, budjet mablag'larining talon-toroj qilinishini oldini olishini qayd etadi [7].

Hindistonlik olim M.A. Paithankar davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Moliyaviy nazorat budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanishini ta'minlaydi". Muallif nazorat jarayoni davlat xarajatlari ustidan monitoringni kuchaytirib, mablag'larning isrof bo'lishini oldini olishini qayd etadi [8].

Rus tadqiqotchisi A.I. Lukashov davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda g'aznachilik nazoratining ahamiyatini yoritadi. Uning fikriga ko'ra, "G'aznachilik nazorati budjet xarajatlarining natijadorligini oshirish va mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlashning muhim instrumentidir". Muallif budjet xarajatlarini monitoring qilish va audit mexanizmlarini kuchaytirish orqali mablag'larning maqsadsiz sarflanishi oldi olinishi, budjet intizomi va moliyaviy shaffoflik ta'minlanishini ta'kidlaydi [9].

Ko'pgina manbalarda moliyaviy nazorat jarayonida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashning o'rni alohida ta'kidlangan bo'lib, bu davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda aholining ishonchini oshirishga yordam berishi qayd etilgan. Shuningdek, moliyaviy nazoratning kuchli bo'lishi nafaqat davlat sektorida mablag'lardan oqilona foydalanishga yordam beradi, balki davlat organlarida hisobdorlikni oshirish, korrupsiya va mablag'larning talon-toroj qilinishining oldini olishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyatini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishga yo'naltirilgan. Avvalo, moliyaviy nazoratning mohiyati, vazifalari va tamoyillari ilmiy adabiyotlar asosida o'rganildi, ularning davlat moliya boshqaruvidagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot davomida taqqoslash va tahliliy yondashuv usullaridan foydalanilib, davlat moliyaviy nazorati tizimining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan omillar aniqlashtirildi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi ham o'rganilib, davlat budjeti mablag'laridan oqilona foydalanishda moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirish yo'llari aniqlab berildi. Amaliy yondashuv asosida davlat moliya organlarining ochiq ma'lumotlari, hisobotlari va moliyaviy nazoratga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu esa moliyaviy nazorat tizimi orqali budjet mablag'larining maqsadli va natijador sarflanishini ta'minlashdagi mavjud imkoniyatlarni aniqlashga yordam berdi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida davlat moliyaviy nazorati jarayonining mavjud

kamchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganildi. Shu bilan birga, moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni qo'llash, audit va monitoring jarayonlarini takomillashtirish zarurligi asoslandi. Natijada, tadqiqot metodologiyasi davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning o'rni va uni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat budjeti mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish davlat moliyasini boshqarishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Budjet mablag'laridan foydalanish maqsadlari, avvalo, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu mablag'lar orqali aholi farovonligini oshirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish, ijtimoiy sohalarda sifatli xizmatlarni taqdim etish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Shuningdek, budjet mablag'laridan foydalanish davlatning o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarish, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishning asosiy maqsadlari — davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, aholining turmush darajasini oshirish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash va davlat zimmasidagi majburiyatlarni bajarishga qaratilgan. Budjet mablag'lari davlatning asosiy moliyaviy manbasi sifatida mamlakatning ijtimoiy himoya tizimini qo'llab-quvvatlash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish, transport va infratuzilmani takomillashtirish kabi ustuvor yo'nalishlarga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, davlat budjeti mablag'lari mudofaa va xavfsizlik, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va davlat boshqaruvi xarajatlarini moliyalashtirish kabi yo'nalishlarda muhim rol o'ynaydi. Budjet mablag'laridan foydalanishda davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarishi aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi kelajakda yuqori malakali kadrlar tayyorlash va aholining sog'lom turmush tarzini ta'minlashga yordam beradi. Infratuzilmani rivojlantirish va transport tizimini takomillashtirish esa ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatning mudofaa va xavfsizlik yo'nalishidagi xarajatlari milliy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bois davlat budjeti mablag'laridan foydalanish ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilganda iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda budjet mablag'laridan foydalanishning maqsadlarini to'liq ko'rishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval. Budjet mablag'laridan foydalanish maqsadlari[1]

| | |
|---|---|
| **Ijtimoiy himoya va yordam** | Davlat kam ta'minlangan fuqarolar, nogironlar va nafaqaxo'rlar kabi aholining eng zaif qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Bunday qo'llab – quvvatlashning maqsadi ijtimoiy adolatni ta'minlash va jamiyatning barcha a'zolari uchun munosib hayot uchun sharoit yaratishdir. |
| **Ta'lim** | Davlat mablag'larining katta qismi ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bunda maktablar, kollejlar va universitetlarni qurish va jihozlash, pedagog kadrlar malakasini oshirish, o'quv materiallari bilan ta'minlashdan iborat. |
| **Sog'liqni saqlash** | Shifoxonalar, poliklinikalar va boshqa tibbiy muassasalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, dori-darmonlar, uskunalar va vaksinalar xarid qilish uchun mablag' ajratiladi. |
| **Infratuzilma va transport** | Yo'llar, ko'priklar, suv ta'minoti, energiya infratuzilmasi, transport tizimlarini qurish va ta'mirlash uchun davlat mablag'lari ishlatiladi. |
| **Mudofaa va xavfsizlik** | Mamlakatning suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi. Davlat budjetidan mablag'lar mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta' minlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va qurolli kuchlarni saqlashga yo'naltiriladi. |
| **Ilm-fan va innovatsiyalar** | Ilmiy tadqiqotlar, texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratiladi. |
| **Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi** | Atrof-muhitni asrash, chiqindilarni boshqarish, suv va havo sifatini yaxshilash kabi ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun mablag' yo'naltiriladi. |
| **Davlat boshqaruvi va xizmatlari** | Davlat budjetining katta qismi davlat organlarining ishlashini ta'minlashga yo'naltiriladi. Bunda ularning faoliyatini moliyalashtirish, davlat xizmatchilariga ish haqini to'lash va aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishdan iborat. |

1 Muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu jadvaldagi ma'lumotlardan bizga shunisi ma'lum bo'ladiki, davlat budjeti mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilganini ko'rish mumkin. Ijtimoiy himoya davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ta'limga yo'naltirilgan mablag'lar sifatli kadrlarni tayyorlashga, sog'liqni saqlash xarajatlari esa aholining salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Transport va infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy faollikni oshirish bilan birga, aholiga qulay yashash imkoniyatlarini yaratadi. Mudofaa va xavfsizlik yo'nalishi davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim qismi bo'lib, tinchlik va barqarorlikni kafolatlaydi. Ilm-fan va innovatsiyalar esa mamlakatning raqobatbardoshligini oshiradi va zamonaviy texnologiyalar rivojini tezlashtiradi. Ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan mablag'lar esa atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qilib, barqaror yashash muhitini yaratadi. Davlat boshqaruvi va xizmatlarini moliyalashtirish orqali davlat idoralari faoliyati samaradorligi oshiriladi va aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Shu bois budjet mablag'laridan foydalanishda barcha yo'nalishlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, davlatning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda yil oxirida budjet mablag'larini to'g'ri va maqsadli yo'naltirish uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va maqsadli mo'ljallar juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu prognoz va maqsadli mo'ljallar yillik budjet xarajatlarini shakllantirishda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi va resurslarni to'g'ri taqsimlash imkonini yaratadi. Quyidagi jadvalda biz 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va 2025–2026-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar bilan tanishishimiz mumkin (2-jadval):

2-jadval. 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2026-2027-yillarga maqsadli mo'ljallar [10]

| T/r | Ko'rsatkichlar | 2025-yil uchun prognoz | Maqsadli mo'ljallar | |
|---|---|---|---|---|
| | | | 2026-yil | 2027-yil |
| 1. | Yalpi ichki mahsulot, trln so'm | 1 630 | 1 866 | 2 125 |
| 2. | Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, foizda | 6,0 | 6,1 | 6,3 |
| 3. | Iste'mol narxlari indeksi, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda | 7-8 | 5-6 | 5 |
| 4. | Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda | 6,1 | 6,2 | 6,1 |
| 5. | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda | 4,1 | 4,2 | 4,3 |
| 6. | Bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, foizda | 14,5 | 15,1 | 15,0 |
| 7. | Qurilish ishlarining o'sish sur'ati, foizda | 14,2 | 10,2 | 7,3 |

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan O'zbekistonning 2025–2027-yillar uchun iqtisodiy rivojlanishida barqaror o'sishni ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar ko'rinadi. Yalpi ichki mahsulot hajmining 2025-yilda 1 630 trln so'm bo'lishi va 2027-yilda 2 125 trln so'mgacha o'sishi rejalashtirilgani iqtisodiy bazani kengaytirish maqsadida ishlab chiqarishni oshirish, yangi loyihalarni amalga oshirish va ichki talabni rag'batlantirishga xizmat qiladi. YAIMning yillik o'sish sur'atlari 6–6,6% atrofida belgilanishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilganligini ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasini 2025-yilda 7–8%dan 2027-yilda 5%gacha tushirish aholining xarid qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi. Sanoat va qishloq xo'jaligidagi o'sish sur'atlari barqaror ushlab turilishi, xizmatlar sohasida yuqori o'sish sur'atlari rejalashtirilgani esa iqtisodiy struktura diversifikatsiyasiga xizmat qiladi. Qurilish ishlarining o'sish sur'ati 2025-yilda yuqori bo'lib, 2027-yilda pasayishi rejalashtirilgani ichki talabning qondirilishi bilan izohlanadi. Ushbu prognozlar davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Jadvalda keltirilgan maqsadli mo'ljallar davlat boshqaruv organlari uchun xarajatlarni ustuvorlik asosida taqsimlashda, resurslarni oqilona va samarali ishlatishda amaliy mezon sifatida foydalaniladi. Shu tariqa, ushbu prognozlar davlatning strategik rivojlanish rejalari amalga oshishiga xizmat qilib, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

Davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyati juda yuqori bo'lib, davlatning moliyaviy barqarorligi va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda hal qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Moliyaviy nazorat budjet mablag'larining belgilangan maqsadlar asosida ishlatilishi, ajratilgan

mablag'larning maqsadsiz sarflanishining oldini olish, budjet defitsitining oshib ketmasligini ta'minlash va budjet tushumlari bilan xarajatlari o'rtasida muvozanatni saqlashda asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy nazoratning samarali tashkil etilishi budjet mablag'larining korrupsiya, suiiste'mol va samarasiz sarflanishi kabi holatlarning oldini olish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, moliyaviy nazorat tizimi yordamida davlat boshqaruvi samaradorligi oshadi, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ochiqligi ta'minlanadi, aholining davlatga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi.

Moliyaviy nazorat natijalari asosida kamchiliklar aniqlanadi, ularga nisbatan chora-tadbirlar belgilanadi va kelgusida bu kabi xatolarni takrorlamaslik uchun profilaktik ishlar amalga oshiriladi. Shu sababli, davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish davlatning iqtisodiy barqarorligi va samaradorligini oshirish, davlat xarajatlarini maqsadli ishlatish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va davlat moliya siyosatini takomillashtirish uchun muhimdir. Bu esa davlatning barcha moliyaviy operatsiyalarining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyatini ko'rib chiqamiz (3-jadval):

3-jadval. Davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyati[2]

| № | Moliyaviy nazorat yo'nalishi | Vazifasi |
|---|---|---|
| 1 | Qonuniylikni ta'minlash | Mablag'lar belgilangan qonun va qarorlar asosida ishlatilishini ta'minlaydi. |
| 2 | Maqsadlilikni ta'minlash | Mablag'larning ajratilgan maqsad bo'yicha ishlatilishini nazorat qiladi. |
| 3 | Samaradorlikni oshirish | Mablag'larning natija beruvchi yo'nalishlarga sarflanishini ta'minlaydi. |
| 4 | Korrupsiyaning oldini olish | Korrupsiya va suiiste'molning oldini olishga xizmat qiladi. |
| 5 | Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash | Budjet defitsitining oshmasligi va barqaror moliya boshqaruvini ta'minlaydi. |
| 6 | Hisobotlarni shaffof yuritish | Davlat moliyaviy hisobotlarini ochiq va shaffof yuritishni ta'minlaydi. |
| 7 | Davlat resurslarini tejash | Mablag'larning samarasiz sarflanishini kamaytiradi va tejamkorlikni oshiradi. |
| 8 | Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish | Moliyaviy boshqaruv sifatini oshiradi, samarali boshqaruvni ta'minlaydi. |

Mazkur jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qilganda, moliyaviy nazoratning davlat budjeti mablag'laridan foydalanish jarayonidagi o'rni va ahamiyati ravshan ko'rinadi. Birinchidan, moliyaviy nazorat mablag'larning qonuniy ishlatilishini ta'minlash orqali davlat mablag'larini to'g'ri boshqarishga yordam beradi va moliyaviy intizomni mustahkamlaydi. Ikkinchidan, maqsadlilik tamoyilining ta'minlanishi davlat mablag'larining belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun sarflanishini kafolatlaydi, bu esa budjet mablag'larining samarasiz yo'qotilishini oldini oladi. Uchinchidan, moliyaviy nazorat samaradorlikni oshirish orqali davlat xarajatlarining natijadorligini oshiradi, ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan mablag'larning aholiga real foyda keltirishini ta'minlaydi. Shuningdek, korrupsiya va moliyaviy suiiste'mollarning oldini olish orqali davlat moliyasining shaffofligini oshiradi, davlat mablag'larini noqonuniy foydalanish bilan bog'liq xatarlarni kamaytiradi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash orqali davlatning budjet barqarorligini saqlaydi, defitsitning oshib ketishini oldini oladi va iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Hisobotlarni shaffof yuritish natijasida davlatning aholiga hisob berish mexanizmlari kuchayadi, aholi davlatning moliyaviy faoliyatini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Davlat resurslarini tejash va samarali boshqarish esa umumiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, davlatning moliyaviy resurslarini tejamkor va oqilona ishlatishga yordam beradi. Shu bois, moliyaviy nazorat davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda ishonchli mexanizm sifatida davlat moliya siyosatini amalga oshirishda hal qiluvchi o'rin egallaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyati beqiyos bo'lib, u davlat moliya tizimining barqarorligi, moliyaviy intizomning mustahkamlanishi va budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Tadqiqot davomida

2 Muallif tomonidan tayyorlandi

moliyaviy nazoratning nafaqat davlat xarajatlari ustidan monitoring olib borish, balki davlatning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, davlat moliyasidan foydalanishda shaffoflikni oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qilishi aniqladi. Moliyaviy nazoratning samarali ishlashi uchun davlat moliya organlari faoliyatini takomillashtirish, hisobdorlik va ochiqlikni kuchaytirish, ichki va tashqi moliyaviy nazoratning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy nazoratning samaradorligi bevosita uni amalga oshiruvchi mexanizmlarning takomillashganlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu borada raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Elektron audit tizimlari, real vaqt rejimidagi monitoring, xarajatlarni boshqarishda axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi nazorat jarayonida aniqlik va tezkorlikni oshiradi, budjet mablag‘larining maqsadsiz ishlatilishi va noqonuniy xarajatlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bois davlat moliya boshqaruvida zamonaviy texnologiyalar asosida moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qaralishi kerak.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanish uchun moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarur. Amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida moliyaviy nazorat jarayonlarini soddalashtirish, nazorat vakolatlariga ega bo‘lgan organlarning mas’uliyatini oshirish, moliyaviy huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlik choralarini kuchaytirish orqali samaradorlikni ta’minlash mumkin.

Ikkinchidan, davlat moliyaviy nazoratida ochiqlik va shaffoflikni oshirish maqsadida budjet mablag‘larining ishlatilishi yuzasidan jamoatchilikka ochiq axborotlarni taqdim etish mexanizmlarini rivojlantirish kerak. Bu aholining davlat xarajatlari ustidan nazorat qilish imkoniyatini kuchaytiradi, ishonchni oshiradi va korrupsiyaga qarshi kurashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirish uchun ichki va tashqi moliyaviy nazorat o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish lozim. Ichki audit xizmatlari tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini tezkorlik bilan amalga oshirish, tashqi moliyaviy nazorat organlari bilan muntazam axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish davlat budjeti mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, davlat moliyaviy nazorat tizimida raqamli texnologiyalar va elektron monitoring tizimlarini keng joriy etish, real vaqt rejimida davlat xarajatlari ustidan nazorat o‘rnatish davlat moliya boshqaruvining ochiqligi va hisobdorligini oshiradi. Bu yo‘nalishda xarajatlarni boshqarish, xaridlarni nazorat qilish va budjet mablag‘larining sarflanishini monitoring qilish jarayonlariga raqamli yechimlarni qo‘llash samarali hisoblanadi.

Beshinchidan, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish hamda doimiy malaka oshirishni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Bu nazorat jarayonida xatolarga yo‘l qo‘ymaslik va aniqlikni ta’minlash imkonini yaratadi.

Umuman olganda, davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning o‘rni beqiyos bo‘lib, uning samarali ishlashi davlatning fiskal barqarorligini oshiradi, moliyaviy resurslarning oqilona ishlatilishiga xizmat qiladi va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Taklif etilgan yo‘nalishlarni amaliyotga tatbiq etish orqali davlat moliyaviy nazorat tizimi takomillashadi, mablag‘lardan samarali foydalanish va natijadorlikka erishish imkoniyatlari yanada ortadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. (O‘quv qo‘llanma). “IQTISOD-MOLIYA”, Toshkent, 2008. 316 bet.
2. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). Toshkent, 2020. 14 bet.
3. Malikov T.S. Budjet-soliq siyosati. “Iqtisod-moliya”, Toshkent, 2019.
4. Mamadaliyev A. Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish masalalari. O‘zbekiston Davlat Iqtisodiyot Universiteti Nashriyoti, Toshkent, 2021.
5. Rahimov S. Davlat moliyaviy nazorati va uning huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi nashriyoti, Toshkent, 2020.
6. Kamalov A.A. Budjet tashkilotlarida budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish // International Journal of Scientific Researchers. 2024. Vol. 8, Issue 1.
7. Aaskoven L. Budget institutions and taxation. Public Choice. 2018. Vol. 174, No. 3-4. Pp. 335-349.
8. Paithankar M.A. Public Budgeting Theory and Practice. CreateSpace, USA, 2016.
9. Лукашов А.И. Совершенствование инструментария казначейского контроля в целях повышения эффективности бюджетных расходов // Финансовый журнал. 2023. Т. 15. № 5. С. 45-60.
10. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 7**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz